

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

“HERIRUD FARYODI” ROMANI O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI HAQQONIY ASAR

Sharipov Dilshodbek Shodmonjon o‘gli
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
[*dilshodbeksharipov93@gmail.com*](mailto:dilshodbeksharipov93@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu tezis G‘afur Po‘latovning “Herirud faryodi” harbiy-dala romani, uning til uslubi, obrazlar tizimi, g‘oyaviy-badiiy mazmuni, boblar nomlashidagi o‘ziga xosligi, roman yo‘nalishidagi yangilanishlar, asar yozilgan davr ijtimoiy hayoti haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Roman, obraz, tasvir, harbiy-dala roman, hikoyanavis, ijodiy jarayon, afg‘on urushi, “dedovshina”, axloqiy tanazzul.

Annotation: This thesis examines Gafur Polatov’s military field novel “The Cry of Herirud”, focusing on its language style, system of images, ideological and artistic content, the uniqueness of chapter naming, innovations in the novel’s direction, and reflections on the social life of the period in which the work was written.

Keywords: Novel, image/character, depiction, military field novel, storyteller, creative process, Afghan war, dedovshchina, moral decline.

Аннотация: В данной тезисе рассматривается военно-полевой роман Гафура Полатова «Крик Герируда», его языковой стиль, система образов, идейно-художественное содержание, своеобразие в названии глав, новаторство в направлении романа, а также социальная жизнь периода, когда было написано произведение.

Ключевые слова: Роман, образ, описание, военно-полевой роман, новеллист, творческий процесс, Афганская война, «дедовщина», нравственный упадок.

KIRISH

Adabiyot maydonida yaxshi badiiy asar har kuni yaratilavermaydi. Badiiyatning injiq mezonlariga har jihatdan javob bera oladigan hikoya, asar yoki romanning yuzaga kelishi uchun muayyan vaqt, muhit, shart-sharoit va albatta tayyorgarlik talab etiladi. “Herirud faryodi” harbiy dala asarini mutolaa qilar ekanmiz, xayolimizdan ana shunday fikrlar kechdi.

Tuproqni nogahon yorib chiqqan buloq shaffof, shirindan shakar suvlari bilan hammani hayratga solib, minglab dardlarga shifo ulashgani singari, mahorat bilan bitilgan birgina asar o‘z qalam egasini hammaga taniqli qilib yuborishi ham bor gap. Buloqlarning ko‘z ochishi – tabiatdagi noyob hodisalardan. Afsuski, asar yaratilishida individual ijodiy jarayonning qanday kechgani, qo‘lyozma ustida chekilgan zahmatlar, so‘z ma’suliyati oldidagi azob-uqubatlar hamisha kitobxon nazaridan qorong‘u qoladi. Aksari iste’dod sohiblari ijodiy jarayonning bu singari “mahram” tomonlari xususida ochilib-sochilib gapiraverishga ko‘p-da ro‘yxushlik beravermaydilar. Yana o‘sha buloqni tasavvurimizda jonlantiraylik: uning ko‘z ochishi uchun ehtimol o‘n, yigirma yoki aytaylik qirq yil kerak bo‘lgandir? Qanchadan-qancha oylar, yillar o‘tib, yer ostidagi biz sezmagani tektonik jarayonlar tezlashib-sekinlashib, axiri bir kun yorug‘ dunyoga dohil bo‘lgandir?

TADQIQOT OBYEKTI

“Herirud faryodi” muallifning birinchi kitobi. Asarning uzoq yillar mobaynida, sabr-toqat va katta mas’uliyat hissi bilan yozilgani muallif bilan bo‘lgan suhbatlarda ayon bo‘ldi. G‘afur Po‘latovning o‘zi hikoya qilishicha, asar bir necha bor jiddiy qayta ishlangan. Asar voqealarining asar shaklida

inkishof etilishiga muallifning kundalik daftari katta yordam bergan. Nihoyat, oradan yillar o‘tib 2005-yilda “Herirud faryodi” qissa shaklida ilk bor chop etildi. 2015-2016- yillari to‘ldirilgan roman tarzidagi adablari kitobxon qo‘liga tegdi. 2018-yili mamlakatimiz yoshlari uchun Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan “Herirud faryodi” lotin alifbosida nashrdan chiqdi. Asardagi voqealar izchilligi, biri-biridan ta’sirchan va ishonchli hayot manzaralari tasviri bilan yozuvchining o‘tkir iqtidor egasi ekanidan dalolat berib turibdi. Eng fojeali lavhalarni ham o‘quvchi ko‘z o‘ngida ham badiiy gavdalantira olish, qahramonlar harakterini, harakat holatini uning uch-to‘rt og‘iz so‘zlari bilan ishonarli tasvirlash, shu bilan birga aytmoqchi bo‘lgan maqsad-niyatini zo‘riqmasdan o‘quvchiga yetkazish uchun badiiy ijodga qiziqish va havasning o‘zi kamlik qilishini yaxshi bilamiz. Muallifning tili ravon, ta’sirli va tushunarli. Ayrim o‘rinlarda farg‘onaliklarga xos hazil-mutoyibaga o‘chlik, jiddiy mulohaza zamirida ham kinoya-pichingga moyillik sezilib turadi. Asar shafqatsiz realizmi, murosasiz pozitsiyasi bilan E.Xemungeyning “Alvido qurol”[2], E.Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”[3] kabi harbiy asarlarini yodimizga soladi. Nima bo‘lganda ham, qo‘limizda iste’dod bilan yaratilgan go‘zal asar turibdi. E’tirof etishimiz zarur: mazkur qayg‘uli asar bilan adabiyotimizga yangi bir kuchli qalam sohibi kirib kelmoqda. Keling, kitobxon do‘stim, uning yo‘llari ochiq va barakali bo‘lsin, deb duo qilaylik.

Boya aytganimizdek, G‘afur Po‘latovning “Herirud faryodi” asari muallifning birinchi kitobi. Janri-roman. Muallifning o‘zi uni “harbiy dala romani” deb atagan. Asar voqealarining markazida sho‘rolar davrining navbatdagi “eng kir, qora kunlari” sifatida tarixga kirgan Afg‘onistondagi birodarkushlik urushi voqealari turadi. Qarangki, ana shu tahlikali kunlarning nihoyasiga yetganiga ham xash-pash deguncha 36 yil bo‘libdi. O‘sha 1989-yilning 15-fevralida afg‘on urushiga nuqta qo‘yilib, general Gromov boshchiligidagi “muzaffar qo‘shin” Termiz yaqinida Amudayo ustiga qurilgan Hayraton ko‘prigidan “g‘olibona” o‘tib, ona tuproqqa eson-omon qadam qo‘yishi bilan bir qaraganda o‘n yil davom etgan bema’ni urushga chek qo‘yilgandek bo‘lsa ham, lekin aslida uning oqibatlari va asoratlari ko‘p yillarga cho‘zilishi ayon bo‘lib qoldi. Begunoh to‘kilgan qonlar hech narsadan tap tortmaydigan alamzada avlodni yuzaga keltirdi. Ular o‘z navbatida, toptalgan mozorlar, gunohi nimaligini bilmasdan olamdan ko‘z yumgan norasida bolalar va qo‘yday yuvosh chol-kampirlar, xunini talab qiladigan yangi avlodni tarbiyalay boshladi... Lekin bu “yangi qasoskor avlod” keyingi yillarning gapi. Dunyoda xech narsa unutilib ketmaydi. Xatto “unutishga mahkum” deb tamg‘a bosilganlari ham bir kun kelib, zanglagan qulflarni parchalab, yangi davrning shavqatsiz va zalvarli savollariga javob berish uchun oyoqqa turayotganining guvohi bo‘lib turibmiz.

TADQIQOT NATIJALARI

Asar voqealari Ashxobod o‘quv qismining sobiq kursantlari sifatida maxsus harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan sodda o‘zbek yigitining tilidan hikoya qilingan. Uning boshqa kursantlardan farqi – oliy ma’lumotga egaligi. Demak, u safdoshlaridan ko‘ra bitta ko‘ylakni ortiq yirtgan. Shunga ko‘ra, hayot tajribasi ham o‘ziga yarasha. Kim nima desa ishonib ketadiganlardan emas. Nihoyat ular havotir ichida kutgan kun ham yetib keladi: samolyotga o‘tkazilib, 5-motodviziya joylashgan Afg‘oniston Shindoniga jo‘natiladi. Undan Hirot moto-o‘qchi qismiga. Qismga yetib kelishib, hali joylashishga ulgurmaslaridan, sho‘rolar armiyasi harbiy hayotining haqiqiy basharasi ochila boshlaydi: odam qadr-qimmatining bir chaqaga ham arzimastligi, “dedovshina” deb atalgan chirkin illatning maddalab ketgani, millatlararo bir-birini mensimaslik, milliy birdamlikning yo‘qligi va boshqalar har qadamda oyoqqa tushov bo‘lib, yurgizgani halaqit beradi. Tabiatan sirkasi suv ko‘tarmaydigan, qolaversa birov ustidan hukmfarmonlik qilishini jinidan battar yomon ko‘radigan to‘g‘riso‘z va mard asar qahramoni – yangi kelganlar (“g‘o‘ra”lar) ustidan o‘z zo‘ravonligini o‘rnatmoqchi bo‘lgan “barzangi”ni zug‘imiga

boplab javob qaytarib, vaqtincha kir yuvish sexida ishlayotgan farg‘onalik bir askar bilan topishib oladi.

Ana shu zaylda boshlangan boshboshdoqsiz xizmat jarayonida ma‘lum bo‘la boshlaydiki, afg‘on yerlarida olib borilayotgan “baynalminal yordam” aslini olganda hech bir qonun-qoidaga bo‘ysunmaydigan, boshi-uchi yo‘q bir harbiy-siyosiy mojaro bo‘lib chiqadi. Eng achinarlisi shuki, bu “urushning” g‘olibini ham, mag‘lubini ham aniqlash mushkul, qayerni qaramang sarson-sargardonlik, bir ilojini topib, pul yig‘ish, odam aldash, boyluk to‘plash, xavotir-hadik ichida kun o‘tkazish. “Xaloskor armiya” ning har bir kuni uchun sovurilayotgan million-million sho‘rolar pulining esa hisob-kitobi yo‘q. Kimning nima bilan shug‘ullanayotgani ham qorong‘u. Afg‘on yerlariga qadam qo‘ygan kimsa borki, jonini hovuchlab yashashga majbur va xuddi kim o‘zarga o‘ynayotgandek bir-birini aldashga, laqillatishga, haqorat qilishga moyil. Ana shunday “absurd” hayot asar qaxramoni duch kelgan “kirchi” (kir yuvish xizmatida ishlaydigan xizmatchi askar) o‘z tili bilan: “Ikki yillik askarlik xizmatini kirxonada o‘tagan Qorabog‘lik yigit dembel bo‘lib qolganini, o‘rniga u o‘tganini, shunday yo‘l tutmasa, ya‘ni xizmatini qolgan oylarida, unga biror kor-hol bo‘lib, uyiga tirik qaytmasa kasalmand onasi ko‘tara olmasligini, endilikda afg‘on urushi sifatida eski kirchi hamkasbi “Jangovar xizmatlari uchun” medali bilan uyiga qaytayotganini, hamma narsani yo‘li borligini”, bayon etadi. Asarda “oqsoqollar” tomonidan qiyanoq-azoblarga uchragan irodasi mo‘rt “landovursifat o‘ris bola” paypoqdan tortib ichki kiymigacha yuvishdan to‘yib “dushman” tomonga o‘tib ketadi. Komandirdan “sotqinliq qildi” deb yuborilgan mash‘um xabarga bolaligi Leningrad qamalida o‘tgan onadan xat keladi. “Mening bunday nobakor o‘g‘lim yo‘q... O‘g‘lim uchun qo‘limga qurol olib xizmat qilgan va birinchi bo‘lib isnodga qoldirgan shu yaramas farzandimni peshonasidan otgan bo‘lar edim”, - deb yozadi haqiqatdan bexabar ona. O‘g‘il chindan xizmat qilgan bo‘lar edi, biroq kim bilan? Uning yonidagilari dushmandan yomonroq, o‘z qiyofasini yo‘qotgan xizmatdoshlar-ku. Mazkur gaplarda ikki yil xarbiy xizmatda bo‘lib, vatani O‘zbekistonga qaytishga hozirlik ko‘rayotgan yigitning achchiq e‘tirofi bor. Yangi xizmatga borgan “g‘o‘ra”larga eskilar, ya‘ni “oqsoqol” yoki “ded”lar tomonidan ayovsiz qilinadigan zug‘m va kamsitishlar, zo‘ravonliklar, bu qurib ketgur illatning xatto zobitlar orasida xam chuqur ildiz otgani, uni bartaraf etishga hech kimning jur‘at va jasoratining yetishmasligi-mana shu paytdagi sho‘ro armiyasining ichidan chirib-bitganining natijasidir. Shundan keyingi voqealarga bevosita o‘zi ham ixtiyorsiz ishtirokchi bo‘lgan asar qahramoni nimalarga guvoh bo‘lmaydi deysiz: BTR haydovchi moldavan yigitning yonida yurib yonilg‘i sotib pul ishlashi va bu pulni boshlig‘iga eltib topshirib, o‘zi ham bir qismini olib qolishga odatlangani, ko‘prikda soqchi turadigan tojik yigitning afg‘onlarga qaynatilgan o‘q sotib, biznes qilishi va oxiri bir kun borib, bu qilmishi uchun hayoti bilan xun to‘lashi (ya‘ni afg‘onlarni laqillatgani uchun otib tashlanishi), ayniqsa, sho‘rolar bayrami 7-noyabr kuni shaharga maishat qilgani chiqqan paytlarida duch kelgan afg‘on mo‘ysafid bilan kechgan muloqot kitob qahramoniga qattiq ta‘sir qiladi. Negaki, boshqalardan eshitilmagan chinakam adolatli baho keksa o‘zbek afg‘on muallimi tilidan lo‘ndagina bayon qilingan edi. Afg‘onda kechgan biri-biridan ayanchli va xatarli voqealar tafsiloti bilan yaqindan tanishar ekanmiz, bir fojeaning boshqa fojealarga uzviy tutashib, bog‘lanib ketganiga guvoh bo‘lamiz. Buninglab odamlar tinchini buzgan, ularni tinch yashash va ishlash huquqidan mahrum etgan adolatsiz urush edi. Kim bilan, nima bilan urushayotgani noayon bo‘lganidan keyin har qanday sabr-toqatli odam ham to‘g‘ri yo‘ldan toyadi. Sabr-toqati tugab, alamini kimdan olishini bilmay qoladi va o‘zi ham istamagan holda jinoyat yo‘liga kirib qolganini sezmaydi.

Ushbu asarda, garchi sho‘ro zobitlarining ichkilikbozligi va axloqsizligi haqida tafsilotlar yozilgan bo‘lsada, muallif sho‘ro xalqini bu bilan qoralash yo‘lini tutmagan. E‘tibor bersangiz mandarindan

zaharlangan rus askari (Lyosha)ning fojiali taqdiriga achinish, yoki gitarachi Yuraning zulmkor qo‘miqqa qarshi qo‘l ko‘targanini yoqlash jarayonlari bor.

“Herirud faryodi”da “Hukmdorkush davlatmi bu” degan bobi judayam o‘tirgan. Haqiqatda afg‘on hukmdorlari yo qochib, yo o‘lib qutilganlar. Babrakni siyosiy qochoqlik, Najibulloni vahshiyona o‘lim qarshiladi. Keyingi prezident Burhoniddin Rabboniy xudkush qo‘lida jon taslim qilgan bo‘lsa, amir Muhammad Umar noma‘lum o‘lim topdi, Hamid Karzay esa AQSH xarbiy kontingenti bilan birga chiqib ketdi. Afg‘onistonning yangi Prezidenti Ashraf G‘ani Axmadzoyga bunday qismatlar ravo bo‘lmasligini xohlardik, deyilgani romanni vaqt bilan chegaralanmagan qilib, uning ushbu so‘nggi bobi, bugungi kun afg‘on og‘riqlari bilan uzviy bog‘lab, kitobni zamonaviylashtirgandir.

Asar sotsial tarkibining mundarijasida askar va zobitlar munosabatiga keng o‘rin berilgan. Afg‘oniston sharoitida aksaryat boshliq zobitning mavqei o‘z darajasiga muvofiq emas. Chodirga kirgan vzvod komandiri so‘kinib askarlarni uyg‘otmoqchi bo‘lganida, karovatlardan biri ovoz beradi: “Sekinroq, o‘rtoq leytenant, nima gap o‘zi osmon uzilib yerga tushdimi?” deb shashtini pasaytiradi. Ertasi kuni leytenant chodiridan chiqib ketayotganda kimdir orqasidan “Leytuxa, Chmo” deb mazax qiladi. Bir tomondan qarasangiz “leytuxa chumo”larni yoki Vasyutinga o‘xshagan g‘irt mijg‘ov va lattalarni oddiy askarlar tomonidan hurmat qilinmasligi ko‘rinsa, ikkinchi tomondan politruklardan qo‘rqish yoki Chumarga o‘xshagan mushtumzo‘r olg‘irlardan zirillash tasvirlari bor. Demak Afg‘oniston sharoitida Chumarga o‘xshagan olg‘ir va mushtimzo‘rlar hurmat topib, boz ustiga bir diplomat pul bilan uylariga qaytar ekanlarda?

Sho‘ro armiyasining ma‘naviy tanazzuli qandayligi Ashxoboddagi “alkash” zobitning iqrorida ma‘lum bo‘lsa, sho‘ro mafkurasining ertasi qanday bo‘lishi “chars” dan kayfi taroq Chumarning so‘zlarida nixoyatda aniq ifodasini topgan.” “Lenin o‘lganda butun xalq yig‘lagan. Stalin o‘lganda ham butun xalq yig‘ladi. Xrushchyov o‘lganini xech kim bilmadi. Brejnev o‘lgandi butun Siyosiy Byuro yig‘ladi, keyingi Bosh kotib o‘lsa, faqat oilasi yig‘laydi. Shunaqa dohiylarga umumxalq mehri tobora tushib bormoqda ”

Bu tip zobitlardan boshqasi –tibbiy xizmat mayori esa shoir tabiat. U Lermontov she‘rlarini yoddan biladi. Shoh generali Yermolovni oxirida “eski kalish” holiga tushganini so‘zlab beradi. Basavlat va oilali polkovning yosh va go‘zal leytenant qizga ishqiy intilishlari esa nixoyatda jonli.

Ko‘rinadiki, asar muallifi zobitlar tutumi, axloq-odobi hamda ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tasvirlashda bir yoqlamalikka yo‘l qo‘ymagan tasvirda hayotdagi real yo‘ldan borgan.

Asar qaxramoni hikoya qilib bergan voqealar orasida moldavan (BTR xaydovchisi) ning sarxush xolda tasodifan afg‘on taksichisini urib yuborishi va katta leytenantning guvohni yo‘qotish maqsadida begunoh bir kimsani otib tashlashi, uning jon berish laxzalari, eski sil kasali qo‘zib kasalxonada davolanayotgan yurtdoshi Ravshanbek va uning fojeasi haqidagi satrlarni beparvo mutolaa qilib bo‘lmaydi. Xizmatdoshlarning fikr-o‘ylarida bir-birlariga aynan o‘xshab ketadigan kechinmalar ham bir talay: u ham bo‘lsa, ota-onalari, do‘st-yorlari sog‘inchi, eng asosiysi esa “tirik qolish” umidi. Asarning “Chaxcharondagi jang”, “Qimmatga tushgan cho‘milish” boblarida bu kechinmalar (umid va qo‘rquv manzaralari) ayniqsa kitobxon ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘ladi. Kim o‘limdan qo‘rqmaydi? Kim tasodifiy o‘lim topib, daydi bir o‘q bilan miyasi titilib ketishiga befarq qarab tura oladi? Hech kim! Aql-idroki bor har qanday kimsa o‘zining bexuda va bevaqt nobud bo‘lishini oldini olishga, tirik qolishga tabiiy ravishda intiladi. Shoir aytganidek: “G‘alabani o‘liklar emas, tiriklar keltiradi ona Vatanga!” Ko‘rko‘rona fanatizm qaxramonlik emas, borib turgan telbalik, ona tuproq va ota-onalarga qilingan xiyonat bilan tengdir.

Asardagi boblar yoki jarayonlarni nomlanishi ham o‘rinli. Asarni “Hirot bu o‘lim va dahshat demak!” deya boshlanishi beixtiyor diqqatni tortadi. Biz mumtoz adabiyotimiz orqali o‘rgangan dilbar Hiroti

emas, balkim endilikda vayrona va o‘lim shahriga aylangan Hirot ekanligidan qalbimiz mahzun tortadi. Davom etib quyidagi nomlanishga ham e‘tibor beraylik: “Bu qanday yurtki, o‘lim haqida o‘ylashga majbursan” Shu jumlaning o‘zi asar qahramonini ignaning uchida yurgandek kechirgan xavfli hayotini eslatadi.

Aravamning baxti bor deb yurgan moldavanning yoki afg‘onda bir kun ham xizmat qilib ulgurmay peshonasidan otilgan aloqachi mayorning o‘limlaridan ko‘rinib turibdiki, Afg‘onistonda tinch joyning o‘zi omonat ekan. “Bu yerda o‘limlarni ko‘raverib diydang qotib ketadi”, deb fikrlaydi asar qahramoni .

Afg‘on yerlarida olib borilgan urush jabrdiydalar urushi namunasi bo‘lib, romandagi “Afg‘oniston – Fig‘onistonmi?” lavhasida bu haqiqat ayniqsa, o‘zining haddi a‘losiga ko‘tariladi: bir necha afg‘on jangarilari katta yo‘lda o‘tib borayotgan sho‘ro harbiy kolonnasini o‘qqa tutishadi va shu yaqin atrofdagi qishloqqa kirib g‘oyib bo‘ladi. Jangarilarning bu qilmishi ular yashiringan butun boshli qishloqni qirg‘in qilish orqali olinadi. Bu yalpi qirg‘inning yaqin o‘tmishda, biz yashayotgan bugungi kunlarda atigi 25-30 yillar avval sodir bo‘layotgani ishoning kelmaydi. Biroq faktdan o‘jar narsa yo‘q. Aslida hech bir gunohi bo‘lmagan butun qishloq ahli shu tariqa o‘z mamlakatining qurolli armiyasi ko‘z o‘ngida biror-bir asossiz qatli om etilib, o‘zga yurtni bu qadar oyoq osti qilinishi hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydigan fojia edi.

Asar, xizmat muddati tugab, asar qahramonining Ashxobodga, undan poyezd orqali uyiga qaytishida harbiy libosini poyezd oynasidan uloqtirib yuborish bilan tugaydi. Qismdan chiqishda hikoyanavis “meni” qism komandiri bilan ozgina bahsga boradi. Komandir daryoning u yog‘ida kechgan voqealarni gullab yurmaslikni maslahat qiladi.

Ma‘lumki, badiiy adabiyot inson tafakkuriga faol, jonli ta‘sir ko‘rsatadi. Ayni shu xususiyati bilan qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Badiiy so‘z sanati ta‘limiylik va tarbiyaviylik ana shunday vazifalaridan biridir. Inson o‘zligini anglashda, inson turiga mansubligini his etishda shuningdek ruhiy-manaviy, ijtimoiy-falsaviy jihatdan muayyan bir xalqning farzandi ekanligini tushunib yetishida adabiyotning mavqei alohidalikka ega. Bu jihatlari bilan adabiyot milliy shakllanish uchun xizmat qiladi. Garchi G‘afur Po‘latov mazkur asarini yuksak badiylikka davogar bo‘lmagan o‘rtamiyona asarim deb ta‘rif etgan bo‘lsada, o‘ylashimizcha, u mualliflik kamtarligiga borgan. Aksincha asar puxtaligi va badiiy qimmat hamda voqealarni epik tasvirlari, bayonchilik uslubi bilan o‘zbek adabiyotida yaratilgan shu yo‘nalishda yaratilgan asarlardan ortiq bo‘lsa ortiqki, kam emas. Asarda biror bir epizod bekorga kelmaydi, ular uzviy bog‘lanadi. Misol qilib aytganda Podolskiylik chillashirsifat yig‘loqi kursant Vanya bilan asar qahramonini “Uchebka”da, yoki Nase va Filyalar bilan qayta uchrashuvlari bu bog‘liklarga yaqqol misoldir. Asarning ijtimoiy o‘zlikni anglash shakllanishi uchun ta‘sir etadigan bu tasviri kattalar uchun ham, bolalar uchun ham bir xil ahamiyatga ega.

Xulosa

Fikrlarimga so‘nggi nuqta qo‘yishdan oldin yana bir mulohazam aytib o‘tishni lozim topdim. Adadiy jamoatchilikka yaxshi ma‘lumki, afg‘on tuprog‘ida olib borilgan o‘n yillik mash‘um urush haqida o‘zbek adabiyotida yaratilgan asarlar yetarli. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”, Qo‘chqor Norqobilning “Quyoshni kim uyg‘otadi”, Abdurashid Normurodovning “Qonli yo‘rgaklar”, Isoqjon Nishonovning “Afg‘on shamoli”, Nabi Jaloliddinning „O‘limning rangi“, Nabijon Hoshimovning “Afg‘on fig‘onlari yoxud tilmoch Samarqandiyning ko‘rgan-kechirganlari”, Abdug‘afur Iskandarning “Afg‘on to‘la fig‘onim” kabi asarlari ushbu mavzuda hikoyadan tortib roman-turkumlarigacha yozildi. Ammo G‘afur Po‘latovning “Herirud faryodi” kitobi mualliflarning bu boradagi asarlaridan har tomonlama ustunligi va pishiq-puxtaligi bilan ajralib turadi. Buyuk

istiqlohimiz bizga XX asrning so‘nggi choragidagi ana shu qora kunlar to‘g‘risida ro‘y-rost gapirish va yozish huquqini berdi. Mustaqilligimizga erishish ostonasida yakun topgan adolatsiz afg‘on urushi saboqlari to‘g‘risida hikoya qiluvchi “HERIRUD FARYODI” harbiy-dala romanini hali ko‘p avlodlar o‘qishiga, agar xorij tillariga tarjima qilinsa, jahon adabiyotida ham o‘z o‘rnini topishiga ishonchim komil. Bunga yaqinda ushbu asar haqidagi maqola Amerika matbuotida e‘lon qilinishi fikrimizga yaqqol misoldir.

“Herirud faryodi” kitobini navbatdagi nashri O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Farg‘ona viloyat bo‘limi tomonidan chop etilishi bugungi Afg‘onistondagi tang vaziyatni chuqur o‘rganishga xizmat qilib, uning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy, ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyati ham shu bilan qadrlidir.

Ushbu tezisdagi fikrlar filologiya fanlari nomzodi Nabijon Soliyevga tegishli bo‘lib, ustozning vafoti bilan chop etilmay qolingan. Ustozni ruhlari shod bo‘lsin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Po‘latov, G‘. (2022). Herirud Faryodi. Toshkent: Qamar media,
2. Xeminguey E. (2022) Alvido qurol. Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Remark E.(2020) G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Hoshimov, O. (2015). Tushda kechgan umrlar. Toshkent: Meriyus.
5. Norqobil, Q. (2007). Quyoshni kim uyg‘otadi. Toshkent: Sharq.
6. Normurodov, A. (1991). Qonli yo‘rgaklar. Toshkent: O‘zbekiston.
7. Nishonov, I. (2016). Afg‘on shamoli. Toshkent: Yangi asr avlodi.
8. Jaloliddin, N. (2021). O‘limning rangi. Toshkent: G‘afur G‘ulom.
9. Hoshimov, N. (2015). Afg‘on fig‘onlari yoxud tilmoch Samarqandiyning ko‘rgan kechirganlari. Toshkent: Tafakkur.
10. Iskandar, A. (2018). Afg‘on to‘la fig‘onim. Toshkent: Muharrir